

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BILSH JARAYONING
RIVOJLANISHI

Quvvatova Gulhoy G`ulomjon qizi

Abdulla Qodiriy Jizzax Davlat Pedagogika univertiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti
III kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7372920>

Annotatsiya. Ushbu maqolada magtabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlari yani sezgi takakkur xotira nutiq xayol hissiyot kabi jarayonlari yuzasidan ma`lumot berilgan. Bundan tashqari bilsh jarayonlarni rivojlantirshda turli xil usullardan foydalanish masalalari ochib berilgan.

Kalit so`zlar: sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, hissiyot.

Bog`cha yoshidagi bolalarda sezgi idrok tafakkur tasavvur nutq xayol irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Bola ranglarni hali bir –birdan yaxshi farq qila olmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam berdigan o`yinchoqlar, kiyimlar, rangli halqalar, qutchalar, va shu singari o`yinchoqlar berish maqsadga movofiqdir.

Bog`cha yoshdagi bolalar turli narsalarni idrok qilshda ularning ko`zga yaqqoltashlanib turuvchi belgilariga rang va shakliga asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qila olmaydilar.

Bog`cha yoshdagi bolalar kattalarning yordami bilan suratni analitik ravishda idrok qilsh qobiliyatga ega bo`ladilar. Bolalar suratlarni idrok qiliyotganlarda kattalar turli xil savollar bilan tahlil qilshga o`rgatishimiz lozim. Bumda asosan bolalar diqqatini:

- 1) Suratning mazmunini (sujetini) to`g`ri idrok qilshga ;
- 2) Suratning umumiy ko`rinishda har bir tasirlangan narsalarning o`rnini to`g`ri idrok qilshga;
- 3) Tasvirlangan narsalar o`rasidagi munosabatlarni to`ri idrok qilishga qaratish kerak.

Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo`ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati benihoya kattadir. Bo`g`cha yoidagi bolalar diqqati ixtiyorsiz bo`ladi. Bo`g`cha yoshdagi bolalarda ixtiyor diqqatning o`sib borishi uchun o`yin kata axamiyatga ega. O`yin paytda bolalar diqqatlarini bir joyga to`lab, o`z tashabbuslari bilan ma`lum maqsadlarni ilgari suradilar.

Bu yoshdagi bolalarning xotirasi yangi faoliyatlar va bolalarning va bolaning o`z oldiga qo`ygan yangi talablari asosida takomillashib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasi ko`rgazmali, obrazli, bo`lshi bilan xaraktrlidir. L.S.Vigotiskiy takidlashicha bola xotirasning rivojlanishda nutiqning o`sishi juda kata axamiyatga ega. Bu davirda bola narsa va xodisalarni faqat bevosita ko`rish orqali emas balki shu narsa va xodisalarning nomlari orqali ham idrok qila oladigan bo`ladi. Bundan tashqari kattalardan so`rab bilish olish eshitish orqali ham xotiralarni boyitadilar.

Ilk bolalaik davridagi xotiraning barcha jarayonlari ko`rina boshlaydi. Masalan kichik yoshdagi bola dastavval mexanik ravishda yani manosiga tushunmasdan esda oilb qilaveradi. Buning o`ziga xos jihati bor, albatta, Birinchidan yuqorda aytib o`tganimiz kabi bolalarda turmish tajribasi juda ozgina, ular ko`p narsalarni xali muloqot bilmaydi, lekin hayotda to`qnash kelganligi sababli eslarida olib qoladilar. Ikkinchidan bolalar nerv sistemasning pstligi yani juda egiluvchanligi kattalarnikdan ham ustinroq bo`ladi. Mana shu sabali bolalarga mexanik eslab qolish hech qanday qiyinchilil tug`dirmaydi.

Bolalarda soʻzlarning maʼnosidga tushinib eslab qolish ham juda erta rivojlana boshlaydi. Masalan, ilk bolalalik davridagi bolalar oʻzlari yoqtirgan xikoyalarni maʼnosiga toʻla tushngan holda eslab qoladilar. Bu xikoyalardagi ayrim qaxramonlarni sevadilar, bazilarni yomon koʻradilar. Umuman, xikoyalarning mazmuni boshqalarga tasir qilib, ularda malum tuygʻu xissiyotni uygʻotadi, bu esa bolalarda xikoyaning mazmunini tushuniotganliklaridan dark beradi. Ilk bolalik davrida bolalarda datlab ixtiyorsiz esda oilb qolish va ixtiyorsiz esga tushirish vujudga keladi. Biror narsani eslash, esga tushirish assaotsiatsiya tarzida namoyon boʻladi. Ular oʻzlari atylab esga tushurmaydilar. Oʻyin raoliyatda biror narsani eslash lozim boʻlib qolganda, assotsiatsiya tarzda boshqa shunga oʻxshash narsalar ham beixtiyor eslariga tushadi.

V.V. Davidovning eʼtirof etishicha, boʻycha yoshdagi bolalar (xussusan kichik gurux bolalari) oʻlarning faoliyatlari uchun qandaydir axamiyatga ega boʻlgan, ularda kuchli tassurot qoldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor eslarida olib qolaveradilar. Ular biror narsani eslarida olib qolishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻymaydilar va hali maqsad qoʻyishni udasidan chiqqa olmaydilar. Bogʻcha yoshidagi bolalarda asosan ixtiyorsiz esda olib qolishning yetaki tasodifiy bir xol emas. Buning oʻz sabablaei bor. Xar bir tarbiyachi-pedagog bolalar xotirasiga doir xususiyatlarni yaxshi bilish kerak.

Boʻcha yoshidagi bolalarning tafakkuriva uning rivojlanishi oʻziga xos xususiyatiga ega. Tafakkur bolaning boʻcha yoshidagi tez rivojlana boʻshlaydi. Bning sababi, birinchidan, boʻgcha yoshidagi bolalarda turmish tajribasning nisbatan koʻpayishi, ikkinchidan, bu davirda bolalar nutqining yaxshi rivojlangan boʻlishi, uchunchidan esa, boʻgʻcha yoshdagi bolalarning erkin, mustaqil harakatlar qilish imkoniytiga ega boʻlishlardir.

Boʻgʻcha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tugʻilishi, ular tafakkurning faollashayotganidan darak beradi. Bola oʻ savolga javob topa olmasa yoki kattalar uning savolga ahamiyat bermasalar, undagi qizquchanlik soʻna boshlaydi. Kunlarning birida 5 yoshli Gulhayo shunday savol berdi: <<Udam uxlaganda ham nafas oladimi ?>>, <<Buvijon sizning muchaligiz nima ?>>. Odatda, har qanday taffakur jarayoni biron narsadan taajjublanishi, hayron qolishiva natijada turli savollarning tugʻilishi tufayli paydo boʻladi. Koʻpgina ota onalar va ayrim tarbiyachilar agarda bolalar ortiqchaberib yuborsalar, <<koʻp maxmadona boʻlma>>, << sen bunday gaplarni qayerdan oʻrganding?>>, deb koyib beradilar. Natijada bola oʻksinib, oʻz bilganicha tushunishga harakat qiladi. Ayrim tortinchoq bolalar wsa hech hamsavol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashgʻulotlar va sayohatlarda kattalarning oʻzlari hamsavol berishlari va shu bilan ularni faollashtirshimiz lozim.

Har qanday tafakkur odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sentiz qilshdan boshlanadi. Shuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sentiz qilshni tafakkur jarayoni deb ataymiz. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirsh va rivojlantirshga yordam beradi. Bolalar tabiatga qilgan sayohtlarda turli narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydilae, analiz hamda sentiz qilib koʻrishga intiladilar. Agar 2 yashar bolaning soʻz boyligi taxminana 250 tadan 400 tagacha boʻlsa, 3 yashar bolaning soʻz boyligi 1000 tadan 1200 tagacha, 7 yashar bolaning soʻz zaxirasi 4000 taga yetadi. Demak boʻgʻcha yoshi davrida nutqi ham miqdor sifat jihatdan ancha takomillashadi. Boʻgʻcha yoshidagi bolaning nutqni oʻsishi oilaning madaniy saviyasiga koʻp jihatdan bogʻliq bundan tashqari bolada bilsh jarayoning shakillanishi tashqi muxit bilan ham chambarchasi boʻliq desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Darxaqiqat, barkamol avlodni tarbiyalashda taʼlim tiziming boshlangʻich bosqichi boʻlmish maktabgacha taʼlimning oʻrbi beqiyosdir. Maktabgacha taʼlimda bolaning bilm

jarayonlari qolaversa bilsh jarayonlari shakillantiriladi. Bilm jarayonlardan biri bo‘lmish xotirani shakillantirish maktabgacha yosh davrdagi bolaning shaxs sifatida shakillanishda, maktabgacha, o‘shga tayyorgarlikda kata rol o‘ynaydi. Xuddi shunning uchun ham maktabgacha yosh davridagi xotira turlari tafakkur jarayonlari qolaversa nutqni shakillantirishni o‘rgabish dalzarb xisoblanadi.

REFERENCES

- 1 G‘oziyev E. “Umumiy psixalogiyasi”-T. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2010-548-b.
- 2 Vaxrusheva L.N. “5 yoshli bolalarda bilish qiziqishlarni o‘rganish”. M.TCsphere, 2012.
- 3 Tixomirova L. F. “Bolaning bilsh qobiliyatini rivojlantirish” Ota-onalar va o‘qtuvchilar uchun nashhur qo‘llanma .- Yaroslava: Rivojlanish akademiyasi, 1996-192p.
- 4 Poddyakov N.N. “Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishing xususiyati”-M, 1996 y.
- 5 Nemov R.S. “Psixologiya”. –M; VLADOS, v-3-x tomax. 2009
- 6 Satarov E.N, Alimov X. “Bolalarning xotirasini rivojlantirish usullari”. –T 2003.
- 7 Dj. U. Kalat “Psychology”. - 2013.